YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL, OKTYABR / VI MAXSUS SON

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G‘afforovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko‘nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O‘z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
Ochilov Farkhod, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig‘i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li, TDIU katta o‘qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Elektron nashr. 307 sahifa.
E’lon qilishga 2026-yil 24-oktyabrda ruxsat etildi.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G‘afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o‘qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH: YUTUQLAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR 9
Yunusov Xudoynazar Beknazarovich

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA IJARA MUNOSABATLARI VA INVESTITSION AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 11
Egamberdiyeva Salima Rayimovna

KORXONA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASH VA RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH FOYDA KO‘RSATKICHLARINI 2029-YILGACHA PROGNOZI 20
Xasanov Baxodir Akramovich, Maxmudov Azamat Normuradovich, Atamurodov Saidmurod Yaxyoyevich

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O‘TISH MASALALARI 23
Kurbanov Ziyat Niyazovich

ОРГАНИЗАЦИЯ НАЛОГОВОГО УЧЕТА И ОПТИМИЗАЦИЯ ЗАТРАТ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЛОГИСТИКИ 28
Н. Бердимурат, А. Бердимурат

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA BIOLOGIK AKTIVLAR AUDITINI RISKLARGA YO‘NALTIRILGAN HOLDA TASHKIL ETISH 34
Alikulov Abdimo‘min Ismatovich, Ruzieva Elvira Abdulmitovna, Rakhimova Umida Rabbimovna

CHORVACHILIK KORXONALARI VA AGROKLASTERLARDA BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBINI BHXS (IAS) 41 “QISHLOQ XO‘JALIGI” STANDARTI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 40
Alikulov A.I., Sayfiyev S. S., Karimov I.Sh.

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARINING IQTISODIY MOHIYATI, ULARNI TASNIFLASH VA BAHOLASHNING ZARURATI 47
Xasanov Baxodir Akramovich, Maxmudov Azamat Normuradovich, Atamurodov Saidmurod Yaxyoyevich

BALIQCHILIK XO‘JALIKLARIDA AYLANMA KAPITALDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI IQTISODIY TAHLIL QILISH VA BARQAROR RIVOJLANISHNI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 50
Fayziyev Oybek Raximovich

CHORVACHILIK BIOLOGIK AKTIVLARI HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI 57
Menglikulov Baxtiyor Yusupovich

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AGROSERVISNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI 63
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich

QISHLOQ AHOLISI DAROMADLARINI KO‘PAYTIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI 68
Amaniyazov Rinat Bayniyazovich

MINTAQAVIY BOG‘DORCHILIKDA RESURS VA XARAJATLAR TARKIBINI OPTIMALLASHTIRISH (Samarqand viloyati tumanlari misolida) 74
Akbarov Husan O‘zbekxonovich

SANOAT SOHASIDA INVESTITSION RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI 79
Azimova Hulkar Egamberdiyevna

QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISHINING TEXNOLOGIK VA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI HAMDA ULARNING XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYA METODOLOGIYASIGA TA’SIRI 86
Mardonov Mamed Shavkatovich

BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA INVESTITSIYALAR HAMDA JOZIBADOR INVESTITSION MUHITNING O‘RNI VA AHAMIYATI 89
Raxmatov Jonibek Ismoil o‘g‘li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

SAMARQAND VILOYATIDA MAISHIY XIZMATLARNI RIVOJANTIRISH ASOSIDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHGA OID TAVSIYALAR 96
Navruzbek Azimjonovich Rajabov

MAMLAKATIMIZDA AHOLINI KAMBAG‘ALLIK DARAJASINING TAHLILI VA KAMBAG‘ALLIKNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY IMKONIYATLARI 99
Saparov Murod Irgashovich

O‘ZBEKISTONDA SAVDO VA ELEKTRON SAVDO XIZMATLARI TARAQQIYOTINING ILMIY ASOSLARI VA RAQAMLI IQTISODIYOTGA MOS RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI 102
Jurakulov Shoxrux Baxtiyorovich

O‘ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOG‘INING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI 108
Eshanqulov Sirojiddin Xakimovich

INNOVATSION AGROTEXNIK TADBIRLAR (XOMTOK VA BARG SONINI BOSHQARISH) ASOSIDA MAYIZBOP UZUMCHILIKDA BARQAROR HOSILDORLIKNI TA’MINLASH YO‘LLARI 114
Abdurasulov Otabek Abdurasul o‘g‘li, Mahmudova Fotima Erkin qizi

ASALARICHILIK XO‘JALIKLARIDA AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 117
Ishturdiev Hasan Abdugapparovich

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ЗАТРАТ БИОЛОГИЧЕСКОВ АКТИВОВ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ 121
Изатиллаева Комила, Эшмурадов Улугбек Ташмуратович

AGROKLASTERLARDA TOVAR-MODDIY QIYMATLIKLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING USLUBIY YO‘NALISHLARI 128
Raximova Umida Rabbimovna, Vahobov Diyor Husan o‘g‘li, Mardonova Parizoda Ziyodullayevna, Djuraqulov Sherali Abdullayevich

O‘ZBEKISTON KIMYO SANOATI KORXONALARI DIVERSIFIKATSIYALASHUVI ASOSLARI 133
Razikov Otabek Rustamovich

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALARNING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 137
Raximova Umida Rabbimovna, Qodirberganova Tabassum Ro‘zimboy qizi, Xazratqulov Firdavs Firuzovich, Qadamboyev Mirxandbek Xamidjon o‘g‘li

LIMON MEVASINING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI HAQIDA BA’ZI TUZUKLAR 140
N.Mamatkulov, Ochilova Marg‘uba

KICHIK BIZNESNI EKSPORTGA OLIB CHIQISH: AMALIY STRATEGIYALAR VA HAYOTIY TAJRIBALAR 143
R. T. Qudratov, A. X. Sodiqov

FERMER XO‘JALIKLARIDA SOTISH JARAYONLARI HISOBI VA AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH 147
Ruziyeva Dilafruz Faxridinovna, Abdunazarova Sevinch

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TURISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR 154
Tleumuratov Baxadir Genjemuratovich

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA BIZNES-JARAYONLARNI AVTOMATLASHTIRISH VA OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI 159
Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich

G‘ALLA YETISHTIRISHDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBI VA MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASHNING HOZIRGI HOLATI 165
Sh.X. Yuldashev, S.S. Nematilloyev

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 171
Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich

YASHIL IQTISODIYOT SHAROTIDA OZBEKISTONDA ISHSIZLARGA YANGI ISH ORINLARINI YARATISH 177
Nazarova M.Sh., Berdikulov Ravshan, Nematullaev Ozodbek, Xasanov Rizo

ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА НА ОСНОВЕ ИНВЕСТИЦИЙ, ИННОВАЦИЙ И ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 181
Шадиева Гулнора Мардиевна

KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARISHIGA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI TA’SIRINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI 185
Saparov Murod Irgashovich

SUT CHORVACHILIGIDA MAHSULOT TANNARXINI OMILLI VA MARJINAL TAHLIL QILISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH 189
Abduganieva Dildora Bobir qizi, Alikulov Abdimo‘min Ismatovich

ASALARICHILIK XO‘JALIKLARIDA TA’MINOT JARAYONI HISOBINING HOZIRGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 195
Ishturdiev Xasan Abdigapparovich

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI 200
Ochilova Mohigul Toshtemir qizi

ПИЩЕВЫЕ ОТХОДЫ И СТРАТЕГИИ БОРЬБЫ С НИМИ 214
Казакова Зулайхо Салахиддиновна, Хотамова Юлдуз Юнусжоновна, Авалбаева Самира Кахрамон кизи, Ахророва Малохат Аброр кизи

AGROKLASTERLARDA TOVAR-MODDIY QIYMATLIKLAR BO‘YICHA ICHKI NAZORAT VA AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH 221
Raximova Umida Rabbimovna, Jumaniyazova Munisa Jamoliddin qizi, Xoliqberdiyev Firdavs Ilhamovich, Nafasov Og‘abek Bobirjon o‘g‘li

KORXONALARDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARI TANNARXINI IAS 2 STANDARTI BO‘YICHA SHAKLLANTIRISH VA UNING AUDITORLIK TAHLILI 225
To‘xtayev Zafar Mamatqulovich, Omonov Sindorbek G‘ayrat o‘g‘li, Abdusalomov Jasurbek Abdukarim o‘g‘li

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ASOSIY VOSITALARNI TAN OLISH, ULARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA BAHOLASH VA AMORTIZATSIYA USULLARI: XALQARO VA O‘ZBEKISTON YONDASHUVLARINING QIYOSIY TAHLILI 229
Azzamova Dinora Xolmumin qizi

O‘ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO STANDARTLARGA UYG‘UNLASHTIRISH SHAROITIDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 232
X. Axmedov, S. Karimov, M. Raxmonova, G. B. Narziyeva

СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ БИЗНЕСА 237
Р. С. Макашева, А. Бердимурат, Азизова София, Акимова Милан

ИНВЕСТИЦИИ, ИННОВАЦИИ И РЕБРЕНДИНГ КАК ФАКТОРЫ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА 242
Шадиева Гулнора Мардиевна

SAMARQAND VILOYATI MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG‘IDA KLASTER TIZIMINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISH YO‘LLARI 246
Roziyeva Gulhayo Choriyevna

PAXTA YETISHTIRISHDA INNOVATSION AGROTEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI 254
Z.N.Ishniyazov

O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 257
G. B. Narziyeva, Baxriddinov Samandar, Jumayev Azamat

O‘ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A’ZO BO‘LISHI VA MILLIY IQTISODIY ISLOHOTLAR: IMKONIYATLAR, XATARLAR VA STRATEGIK MOSLASHUV 262
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna, Yaxshiliqov Jo‘raqul Rahmiddin o‘g‘li, Napasov Aslonbek Asqar o‘g‘li

QISHLOQ XO‘JALIGIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA BARQAROR RIVOJLANISHGA TA’SIRI 267
Ruziyeva Dilafruz Faxridinovna, Tursunov Samad Dilshod o‘g‘li, Tog‘aymurodov Sorbon Suhrob o‘g‘li, Eshqulov Murodjon O‘tamurod o‘g‘li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

FAOL TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINING ASOSLARI 274
Baxtiyorov Mexro‘zxon Baxtiyorovich, Salamov Ibroxim

УЧЕТ И ОПТИМИЗАЦИЯ ТРАНСПОРТНЫХ ЗАТРАТ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЛОГИСТИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ 279
Бердимурат Н., Сапарбай А., Қырықбай Қ.

СИСТЕМА НАЛОГОВ И СБОРОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ И ВЕКТОР РАЗВИТИЯ 286
Бахтиярова Севинчой Абдиязовна, Султонбоева Севинчой Азизбековна

AKVAKULTURA: TABIIY-IQLIM SHAROITLAR, BALIQ YETISHTIRISH USULLARI VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI 289
Urdushev Xamrakul, Rabbimova Parvina Askar qizi

БИОЛОГИЧЕСКИЕ АКТИВЫ КАК СПЕЦИФИЧЕСКИЙ ОБЪЕКТ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА 293
Кураленко Алина, Эшмурадов У.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В МАЛОМ И СРЕДНЕМ БИЗНЕСЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 298
Туякбаева Жазира, Таженова Хурлиман, Ш. Юлдашев

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA JAVOBGARLIK MARKAZLARI SEGMENTAR HISOBOTLARINING XUSUSIYATLARI 301
Alikulov G‘olib Abdimuminovich

UO'K: 657.1:631.145:636

CHORVACHILIK KORXONALARI VA AGROKLASTERLARDA BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBINI BHXS (IAS) 41 "QISHLOQ XO'JALIGI" STANDARTI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Alikulov A.I.
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi mudiri, i.f.d., professor
E-mail: a_aliqulov @mail.ru

Sayfiyev S. S.
Mustaqil tadqiqotchi
E-mail: sayfiyev.98@mail.ru/

Karimov I.Sh.
Mustaqil tadqiqotchi
E-mail: Pfsiikrom@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada chorvachilik korxonalari va agroklasterlarda biologik aktivlarni tan olish, baholash va ular to'g'risidagi axborotni ochib berish masalalari BHXS (IAS) 41 "Qishloq xo'jaligi" va MHXS (IFRS) 13 "Haqqoniy qiymatni baholash" talablari asosida tadqiq etilgan. Mavzuning dolzarbligi qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining yarmidan ko'prog'i chorvachilikka to'g'ri kelishi, milliy amaliyotda esa chorva mollari asosan tarixiy tannarxda hisobga olinishi bilan izohlanadi. Qiyosiy-normativ tahlil, guruhlash va modellashtirish usullari asosida biologik aktivlar tasnifi, haqqoniy qiymatni baholash matritsasi, haqqoniy qiymat o'zgarishini fizik va narx omillariga ajratish modeli hamda haqqoniy qiymat va haqiqiy tannarxni uyg'unlashtiruvchi "ikki konturli" hisob modeli ishlab chiqildi. Shartli misolda sog'in poda qiymatining o'sishi to'liq narx omiliga bog'liq ekani va biologik transformatsiya marjasining qariyb yarmi narx xususiyatiga egaligi ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: biologik aktivlar, BHXS (IAS) 41, haqqoniy qiymat, sotish xarajatlari, chorvachilik, agroklaster, biologik transformatsiya.

Abstract: The article examines the recognition, measurement and disclosure of biological assets in livestock enterprises and agro-clusters under IAS 41 "Agriculture" and IFRS 13 "Fair Value Measurement". The topic is relevant because livestock farming accounts for more than half of gross agricultural output, while national practice still measures livestock mainly at historical cost. Using comparative normative analysis, grouping and modelling, the study develops a classification of biological assets, a fair value measurement matrix, a model that splits fair value changes into physical and price components, and a "two-circuit" accounting model that combines fair value with actual cost. An illustrative case shows that the increase in the value of the dairy herd was driven entirely by prices and that almost half of the biological transformation margin was price-driven.

Key words: biological assets, IAS 41, fair value, costs to sell, livestock farming, agro-cluster, biological transformation.

Аннотация: В статье исследованы вопросы признания, оценки и раскрытия информации о биологических активах в животноводческих предприятиях и агрокластерах на основе МСФО (IAS) 41 «Сельское хозяйство» и МСФО (IFRS) 13 «Оценка справедливой стоимости». Актуальность темы обусловлена тем, что на животноводство приходится более половины валовой продукции сельского хозяйства, тогда как в национальной практике скот учитывается преимущественно по исторической себестоимости. На основе сравнительно-нормативного анализа, группировки и моделирования разработаны классификация биологических активов, матрица оценки справедливой

стоимости, модель разложения изменения справедливой стоимости на физический и ценовой факторы, а также «двухконтурная» модель учета, сочетающая справедливую стоимость и фактическую себестоимость. На условном примере показано, что прирост стоимости дойного стада полностью обусловлен ценовым фактором, а почти половина маржи биологической трансформации носит ценовой характер.

Ключевые слова: биологические активы, МСФО (IAS) 41, справедливая стоимость, затраты на продажу, животноводство, агрокластер, биологическая трансформация.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda chorvachilikning o‘rni tobora ortib bormoqda. 2025-yil 1-yanvar holatiga respublikada 14,4 mln bosh qoramol, shu jumladan, 5,1 mln bosh sigir mavjud bo‘lgan; rasmiy ma’lumotlar asosidagi hisob-kitoblarimizga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotida chorvachilik ulushi 2024-yilda 50,4 foizni, 2025-yilda (dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha) 52,2 foizni tashkil etgan [21]. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan [3]. Prezidentning 2026-yil 12-maydagi PQ-179-son qarori bilan esa 2026–2028-yillarda qoramollar bosh sonini 16,5 mln boshga, go‘sht va sutni sanoat usulida qayta ishlash darajasini 50 foizga, naslli qoramollar ulushini 90 foizga yetkazish vazifalari qo‘yilgan [4].

Tarmoqda agroklasterlar, sut-tovar va naslchilik fermalari kabi yirik subyektlar salmog‘i ortib, ularni moliyalashtiruvchi banklar va investorlarning taqqoslanadigan moliyaviy axborotga talabi kuchaymoqda. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasiga ko‘ra, hisob subyektlari MHXSni qonunchilikda belgilangan tartibda qo‘llashi mumkin [1], PQ-4611-son qaror bilan esa aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar 2021-yildan hisobni MHXS asosida yuritishi belgilangan [2]. 2025-yildan hisobvaraqlar rejasining (21-son BHMS) yangi tahriri amal qilmoqda [5].

Milliy amaliyotda mahsuldor va ishchi hayvonlar asosiy vositalar tarkibida boshlang‘ich qiymatda eskirish hisoblangan holda, o‘stirishdagi va boqishdagi hayvonlar esa joriy aktivlar tarkibida rejaviy tannarxda hisobga olinib, yil yakunida haqiqiy tannarxgacha tuzatiladi [16, 17]. Bunday yondashuv hayvonlarning o‘sishi, nasl berishi va qarishi natijasidagi biologik transformatsiyani hisobot davrida aks ettirmaydi. BHXS (IAS) 41 esa aynan biologik transformatsiyani haqqoniy qiymat orqali aks ettirishga yo‘naltirilgan [6].

Maqolaning maqsadi — chorvachilik korxonalari va agroklasterlarda biologik aktivlar hisobini BHXS (IAS) 41 va MHXS (IFRS) 13 talablari asosida takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

C. Elad qishloq xo‘jaligida haqqoniy qiymat modelini xalqaro uyg‘unlashtirish nuqtayi nazaridan tanqidiy tahlil qilib, ayniqsa, faol bozorlar rivojlanmagan sharoitda baholash ishonchliligi bilan bog‘liq muammolarga e’tibor qaratgan [9]. K. Herbohn va J. Herbohn haqqoniy qiymat o‘zgarishlarini foyda yoki zararda tan olish hisobot ko‘rsatkichlari o‘zgaruvchanligini oshirishi va baholash farazlarining subyektivligi bilan bog‘liq ekanini asoslagan [10]. H. Bohušová, P. Svoboda va D. Nerudová biologik transformatsiya natijasidagi qiymat o‘sishini daromad sifatida tan olishning asosliligini [11], A. Huffman aktivlardan foydalanish xususiyatining haqqoniy qiymat axborotining ahamiyatliligiga ta’sirini [12], R. Gonçalves, P. Lopes va R. Craig esa biologik aktivlar to‘g‘risidagi axborotning bozor qiymatiga ta’sirchanligini (value relevance) o‘rgangan [13].

A. S. Xusainova faol bozor yo‘qligi sababli chorva mollarini zoti, yoshi va maqsadi bo‘yicha guruhlab, bozor narxidan transport xarajatlarini chegirgan holda baholashni taklif qilgan [14], A. O. Beryoza esa haqqoniy qiymatni diskontlangan pul oqimlari asosida aniqlash algoritmini ishlab chiqqan [15].

Mahalliy adabiyotda xarajatlar hisobi va tahlili [16], qishloq xo‘jaligida asosiy vositalar hisobi [17, 18], biologik aktivlarni qamrab olgan iqtisodiy tahlil [19] va agroklasterlarda sotish jarayoni hisobi [20] masalalari tadqiq etilgan. Biroq chorvachilikda BHXS (IAS) 41 ni joriy etishning yaxlit uslubiyati — tasniflash, baholash manbalari, haqqoniy qiymat o‘zgarishini omillarga ajratish hamda moliyaviy va boshqaruv hisobi ko‘rsatkichlarini bog‘lash masalalari yetarlicha yoritilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy-normativ tahlil, guruhlash va tasniflash, monografik kuzatish, abstrakt-mantiqiy fikrlash va iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Axborot bazasini qonunchilik hujjatlari, IASB standartlari va MHXS bo‘yicha sharhlar qo‘mitasi qarorlari, Statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari va ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Uslubiyat sut-tovar fermasining shartli (illyustrativ) ma’lumotlarida sinovdan o‘tkazildi; ular haqiqiy ma’lumotlar bilan almashtirilganda ham hisob-kitob algoritmi o‘zgarmaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval. Qoramollar bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha tarkibi va chorvachilikning qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotidagi ulushi[1]

Ko‘rsatkichlar	2020-yil 1-yanvar	2024-yil 1-yanvar	2025-yil 1-yanvar	2026-yil 1-yanvar*
Qoramollar bosh soni, ming bosh	12 949,7	14 142,2	14 394,5	14 522,8
Ulushi, %: dehqon xo‘jaliklari	93,4	90,8	90,4	89,6
fermer xo‘jaliklari	5,3	7,3	7,5	8,0
qishloq xo‘jaligi korxonalari va tashkilotlari	1,3	1,9	2,1	2,4
Chorvachilikning yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotidagi ulushi (oldingi yil yakuni), %	48,3	49,9	50,4	52,2

1-jadvaldan ko‘rinadiki, 2020–2026-yillarda qishloq xo‘jaligi korxonalari va tashkilotlarining qoramollar bosh sonidagi ulushi 1,8 barobar, fermer xo‘jaliklariniki 1,5 barobar ortgan. Aynan shu subyektlar – agroklasterlar, sut-tovar va naslchilik fermalari – kredit, subsidiya va investitsiyalarni jalb qilishda moliyaviy hisobotdan faol foydalanadi. Keyingi bosqichda milliy amaliyot BHXS (IAS) 41 talablari bilan qiyoslandi (2-jadval).


2-jadval. Chorva mollari hisobining milliy amaliyoti va BHXS (IAS) 41 talablari qiyosiy tahlili[2]

Mezon	Milliy amaliyot	BHXS (IAS) 41 talablari
Hisob obyekti	Mahsuldor va ishchi hayvonlar – asosiy vositalar; yosh va boqishdagi hayvonlar – joriy aktivlar	Barcha tirik hayvonlar – biologik aktivlar; iste’mol qilinadigan va mahsulot beruvchi, yetilgan va yetilmagan guruhlar (43–45-bandlar)
Baholash	Boshlang‘ich qiymat minus eskirish; yosh hayvonlar – rejaviy tannarx, yil oxirida haqiqiy tannarxgacha tuzatish	Dastlabki tan olishda va har bir hisobot sanasida haqqoniy qiymatdan sotish xarajatlari chegirilgan summa – HQ–SX (12-band)
Qiymat o‘zgarishi	Hayvon sotilgunga qadar moliyaviy natijada aks etmaydi	Yuzaga kelgan davrdagi foyda yoki zararda tan olinadi (26-band)
Mahsulot (sut, nasl, jun)	Yil yakunida haqiqiy tannarx bo‘yicha kalkulyatsiya qilinadi	Mahsulot olingan paytdagi HQ–SX bo‘yicha baholanadi va BHXS (IAS) 2 uchun tannarx hisoblanadi (13-band)
Ochib berish	Umumlashtirilgan ko‘rsatkichlar	Guruhlar tavsifi, fizik miqdorlar, balans qiymati harakati (40–50-bandlar), fizik va narx o‘zgarishlari (51-band)

Qiyosiy tahlil ikki asosiy farqni ko‘rsatadi: birinchidan, bir xil biologik tabiatga ega hayvonlar ikki xil aktiv turiga ajratilib, turlicha baholanadi; ikkinchidan, nasl olish, tirik vazn qo‘shish va qarish natijasidagi qiymat o‘zgarishlari hisobot davrida aks etmaydi. Standart biologik aktivlarni saqlash bo‘yicha keyingi xarajatlar tartibini bevosita belgilamaydi: MHXS bo‘yicha sharhlar qo‘mitasining 2019-yildagi qaroriga ko‘ra, korxona ularni kapitallashtirish yoki xarajatga olib borish bo‘yicha hisob siyosatini tanlaydi va bu tanlov haqqoniy qiymat bo‘yicha baholashga ta’sir qilmaydi [8]. Bizningcha, saqlash xarajatlarini xarajatga olib borib, boshqaruv hisobida kalkulyatsiya obyektlari bo‘yicha jamlash maqsadga muvofiq.

BHXS (IAS) 41 ning 43–45-bandlari asosida chorvachilikdagi biologik aktivlar tasnifi ishlab chiqildi (1-rasm). Unga ko‘ra sog‘in sigirlar va naslchilik buqalari mahsulot beruvchi, go‘shtga mo‘ljallangan va sotish uchun saqlanayotgan hayvonlar esa iste’mol qilinadigan biologik aktivlar hisoblanadi. Birinchi tug‘ishgacha bo‘lgan g‘unajinlar yetilmagan mahsulot beruvchi aktivlar sifatida alohida hisobga olinadi. Tasnif mahsulot beruvchi aktivlarni balansda uzoq muddatli, iste’mol qilinadiganlarini esa joriy aktivlar tarkibida taqdim etish hamda standartning 43- va 46-bandlarida nazarda tutilgan miqdoriy axborotni shakllantirish imkonini beradi (1-rasm).

1 Manba: Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari [21] asosida muallif hisob-kitoblari. *Dastlabki ma’lumotlar.
2 Manba: muallif tomonidan [6, 16, 17] asosida tuzilgan.



1-rasm. Chorvachilikdagi biologik aktivlarning taklif etilayotgan tasnifi[3]

Haqqoniy qiymat MHXS (IFRS) 13 dagi uch darajali ierarxiya asosida aniqlanadi: 1-daraja – faol bozordagi aynan o'xshash aktivlarning tuzatilmagan kotirovkalari, 2-daraja – bevosita yoki bilvosita kuzatiladigan boshqa kirish ma'lumotlari, 3-daraja – kuzatilmaydigan kirish ma'lumotlari [7]. Chorva mollari uchun 1-daraja kotirovkalari kam uchragani sababli asosan tuzatilgan bozor ma'lumotlaridan (2-daraja), mahsuldor podada esa zarur hollarda daromad yondashuvidan (3-daraja) foydalanish lozim. Bunda haqqoniy qiymatni ishonchli aniqlash mumkinligi taxminini faqat dastlabki tan olishda, bozor narxlari mavjud bo'lmagan va muqobil baholashlar aniq ishonchsiz bo'lgan holda rad etish mumkinligini (30-band) hisobga olish zarur (3-jadval) [6].

3-jadval. Chorvachilikdagi biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini baholash matritsasi[4]

Aktivlar guruhi	Baholash yondashuvi va asosiy kirish ma'lumotlari	IFRS 13 darajasi	Sotish xarajatlari
Boqishdagi yosh hayvonlar, buzoqlar	1 kg tirik vazn narxi × tirik vazn; narx yoshi, zoti va semizligiga ko'ra tuzatiladi	2	Transport, veterinariya hujjatlari, vositachilik haqi
G'unajinlar	Bo'g'ozlik muddati va zotiga ko'ra tuzatilgan bozor narxi; import narxlari bilan solishtirish	2	Transport, karantin xarajatlari
Sog'in sigirlar	Laktatsiya soni va mahsuldorlikka ko'ra tuzatilgan narx yoki sof pul oqimlarining diskontlangan qiymati	2–3	Transport, savdo maydonchasi to'lovlari
Naslchilik buqalari	Naslchilik guvohnomasiga ega hayvonlar savdosi narxlari; ular bo'lmaganda – daromad yondashuvi	2–3	Transport, sertifikatlash

Standartning 51-bandi HQ–SX o'zgarishini fizik va narx o'zgarishlari hisobiga ajratib ochib berishni tavsiya etadi, biroq hisob-kitob algoritmini belgilamaydi [6]. Shu munosabat bilan quyidagi model taklif etiladi. Guruh bo'yicha haqqoniy qiymat o'zgarishidan foyda (zarar):

$$\Delta HQ = HQ_1 - HQ_0 - X - B - T + S + M + L, \quad (1)$$

bu yerda: HQ_0, HQ_1 – yil boshi va oxiridagi HQ–SX bo'yicha balans qiymati; X – xarid qilingan hayvonlar; B – tug'ilgan buzoqlarning dastlabki tan olingandagi qiymati; T – guruhga sof o'tkazilgan hayvonlar; S – sotilgan hayvonlarning balans qiymati; M – so'yishga yo'naltirilgan hayvonlar; L – tushib qolish va boshqa kamayishlar. Narx omili yil oxiridagi fizik miqdorlar bo'yicha, fizik omil esa qoldiq usulda aniqlanadi:

$$\Delta HQ_{narx} = \Sigma\, q_{1i} \cdot (p_{1i} - p_{0i}), \quad \Delta HQ_{fiz} = \Delta HQ - \Delta HQ_{narx}, \quad (2)$$

bu yerda: q_{1i} – yil oxirida i-kichik guruhdagi fizik miqdor (bosh soni yoki tirik vazn); p_{0i}, p_{1i} – fizik birlikning yil boshi va oxiridagi HQ–SX qiymati.

3 Manba: muallif ishlanmasi.
4 Manba: muallif ishlanmasi [6, 7, 14, 15] asosida.

Model sut-tovar fermasining shartli ma'lumotlarida sinovdan o'tkazildi. Yil boshida 400 bosh sigir (1 bosh uchun HQ–SX – 18,0 mln so'm), 120 bosh g'unajin (9,6 mln so'm) va tirik vazni 54,6 t bo'lgan 260 bosh yosh hayvon (1 kg uchun 40 ming so'm), yil oxirida esa 410 bosh sigir (19,5 mln so'm), 130 bosh g'unajin (10,4 mln so'm) va tirik vazni 62,0 t bo'lgan 310 bosh yosh hayvon (45 ming so'm/kg) mavjud bo'lgan. Yil davomidagi xarid, tug'ilish, guruhlararo o'tkazish, sotish, so'yish va tushib qolish operatsiyalari 4-jadvalda keltirilgan (4-jadval).

4-jadval. Biologik aktivlar balans qiymatining harakati (shartli misol, mln so'm)[5]

Ko'rsatkichlar	Mahsulot beruvchi aktivlar	Iste'mol qilinadigan aktivlar	Jami
Yil boshidagi balans qiymati (HQ–SX)	8 352,0	2 184,0	10 536,0
Xarid qilingan hayvonlar (+)	750,0	–	750,0
Tug'ilgan buzoqlarni dastlabki tan olish (+)	–	850,0	850,0
Haqqoniy qiymat o'zgarishidan foyda (zarar), (1) formula	588,0	3 587,2	4 175,2
shu jumladan: narx o'zgarishi hisobiga	719,0	310,0	1 029,0
fizik o'zgarishlar hisobiga	–131,0	3 277,2	3 146,2
Guruhlararo o'tkazish (g'unajinlar)	693,0	–693,0	–
Sotilgan hayvonlar (–)	–	–3 078,2	–3 078,2
So'yishga yo'naltirilgan hayvonlar (–)	–900,0	–	–900,0
Tushib qolish (–)	–136,0	–60,0	–196,0
Yil oxiridagi balans qiymati (HQ–SX)	9 347,0	2 790,0	12 137,0

4-jadval muhim tahliliy xulosaga olib keladi. Mahsulot beruvchi guruh qiymatining 588,0 mln so'mga oshishi to'liq narx omili hisobiga yuzaga kelgan (719,0 mln so'm), fizik o'zgarishlar esa poda qarishi sababli 131,0 mln so'mlik salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bu axborot ajratib ko'rsatilmasa, foydalanuvchilar podaning holati yaxshilangan degan noto'g'ri xulosaga kelishi mumkin. Iste'mol qilinadigan guruhda esa qiymat o'sishining 91,4 foizi yosh hayvonlarning tirik vazn qo'shishi bilan izohlanadi.

Sog'ib olingan 1 900 t sut mahsulot olingan paytdagi HQ–SX bo'yicha (1 kg uchun 5 900 so'm narxdan 150 so'm sotish xarajatlari chegirilgan holda) 10 925,0 mln so'mda tan olinadi va BHXS (IAS) 2 uchun tannarx hisoblanadi [6]. Buning uchun hisobvaraqlar rejasida «Mahsulot beruvchi biologik aktivlar», «Iste'mol qilinadigan biologik aktivlar», «Biologik aktivlarni dastlabki tan olishdan daromad», «Biologik aktivlar haqqoniy qiymati o'zgarishidan daromad (zarar)» va «Qishloq xo'jaligi mahsulotini dastlabki tan olishdan daromad» analitik hisobvaraqlarini ochish taklif etiladi. Masalan, sog'ib olingan sut «Tayyor mahsulot» debeti va «Qishloq xo'jaligi mahsulotini dastlabki tan olishdan daromad» krediti bo'yicha, g'unajinlarni asosiy podaga o'tkazish esa guruhlar o'rtasidagi ichki yozuv sifatida aks ettiriladi; podani saqlash xarajatlari «Asosiy ishlab chiqarish» hisobvarag'ida kalkulyatsiya obyektlari bo'yicha jamlanib, davr oxirida xarajatlarga olib boriladi.

Haqqoniy qiymat bo'yicha baholash xarajatlar hisobini bekor qilmaydi: samaradorlikni baholash, narx belgilash va ichki nazorat uchun xarajatlarni kalkulyatsiya obyektlari bo'yicha jamlash zarurati saqlanadi [16]. Shu sababli moliyaviy hisobda haqqoniy qiymat, boshqaruv hisobida haqiqiy tannarx bo'yicha axborotni parallel shakllantiruvchi «ikki konturli» model taklif etiladi; konturlarni bog'lovchi ko'rsatkich – biologik transformatsiya marjasi:

$$M_{bt} = (D_{mah} + D_{ba}) - X_{ich}, \quad M_{op} = M_{bt} - \Delta HQ_{narx}, \qquad (3)$$

bu yerda: D_{mah} – qishloq xo'jaligi mahsulotini dastlabki tan olishdan daromad; D_{ba} – biologik aktivlarni dastlabki tan olish va haqqoniy qiymat o'zgarishidan daromad; X_{ich} – podani saqlash bo'yicha haqiqiy xarajatlar; M_{op} – narx omilidan tozalangan operatsion marja.

Shartli misolda D_{mah} = 10 925,0 mln so'm, D_{ba} = 850,0 + 4 175,2 = 5 025,2 mln so'm, X_{ich} = 13 800,0 mln so'm. Natijada biologik transformatsiya marjasi 2 150,2 mln so'mni (haqqoniy qiymatdagi yalpi mahsulotning 13,5 foizi), operatsion marja esa 1 121,2 mln so'mni tashkil etadi. Demak, davr marjasining 47,9 foizi bozor narxlari o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, rahbariyat faoliyati samaradorligini tavsiflamaydi; shu bois rahbariyatni baholash va mukofotlashda narx omilidan tozalangan ko'rsatkichlardan foydalanish lozim. Realizatsiya qilinmagan daromadlar soliq hisobida tan olinmaydigan hollarda BHXS (IAS) 12 bo'yicha kechiktirilgan soliq farqlarini ham hisobga olish zarur.

Baholash ishonchliligi fizik miqdorlar to'g'risidagi ma'lumotlar sifatiga bog'liq. PQ-179-son qaror bilan hayvonlar bosh soni, ishlab chiqarish va naslchilik faoliyatining raqamli hisobini yurituvchi, «Agroportal» bilan integratsiyalashgan platformani ishga tushirish belgilangan [4]; uning ma'lumotlarini korxona hisobi bilan solishtirish axborot ishonchliligini oshiradi.

5 Manba: shartli ma'lumotlar asosida muallif hisob-kitoblari.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Chorvachilik ulushining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotida 50 foizdan oshgani va yirik tovar ishlab chiqaruvchilar salmog‘ining o‘sishi biologik aktivlar hisobini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishni taqozo etadi, chunki tannarxga asoslangan amaldagi hisob biologik transformatsiyani hisobot davrida aks ettirmaydi.

2. Biologik aktivlarni mahsulot beruvchi va iste’mol qilinadigan, yetilgan va yetilmagan guruhlarga ajratuvchi tasnif hamda haqqoniy qiymatni asosan MHXS (IFRS) 13 ning 2-darajasidagi tuzatilgan bozor ma’lumotlari asosida aniqlashni nazarda tutuvchi baholash matritsasi taklif etildi; narx manbalari va sotish xarajatlari tarkibini hisob siyosatida qayd etish lozim.

3. Haqqoniy qiymat o‘zgarishini fizik va narx omillariga ajratish modeli ishlab chiqildi; shartli misolda sog‘in poda qiymatining o‘sishi to‘liq narx omiliga bog‘liq, fizik o‘zgarishlar ta’siri esa salbiy (–131,0 mln so‘m) ekani aniqlandi. Bunday axborot podani yangilash va brakovka qilish qarorlari uchun zarur.

4. Biologik aktivlar va ulardan olinadigan daromadlar bo‘yicha analitik hisobvaraqlar ochish hamda moliyaviy va boshqaruv hisobini bog‘lovchi «ikki konturli» model va biologik transformatsiya marjasi ko‘rsatkichidan foydalanish taklif etiladi; bu rahbariyat faoliyatini narx omilidan tozalangan holda baholash imkonini beradi.

5. MHXSga o‘tayotgan qishloq xo‘jaligi subyektlari uchun biologik aktivlar hisobi bo‘yicha tarmoq uslubiy tavsiyalarini ishlab chiqish va chorvachilik raqamli platformasi ma’lumotlarini korxonalar hisob tizimlari bilan integratsiyalash maqsadga muvofiq. Bu choralar agroklasterlar moliyaviy axborotining shaffofligini oshirib, investitsiyalar jalb qilish orqali qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘RQ-404-son Qonuni (yangi tahriri) // URL: https://lex.uz/docs/2931253
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son qarori // URL: https://lex.uz/docs/4746047
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son Farmoni // URL: https://lex.uz/docs/4567334.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 12-maydagi “Chorvachilik tarmog‘i va yaylov xo‘jaligini zamonaviy boshqaruv tizimi va yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-179-son qarori // URL: https://lex.uz/uz/docs/8214026.
5. План счетов бухгалтерского учета хозяйствующих субъектов и инструкция по его применению (НСБУ № 21): утв. приказом Министра экономики и финансов Республики Узбекистан от 14.11.2024 г. № 191: зарег. Министерством юстиции 27.12.2024 г., рег. № 3593.
6. IAS 41 Agriculture: International Accounting Standard / IFRS Foundation. – London: IFRS Foundation, 2026. – URL: https://www.ifrs.org/content/dam/ifrs/publications/html-standards/english/2026/issued/ias41.html (murojaat sanasi: 17.10.2026).
7. IFRS 13 Fair Value Measurement: International Financial Reporting Standard / IFRS Foundation. – London: IFRS Foundation. – URL: https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-13-fair-value-measurement/.
8. Subsequent Expenditure on Biological Assets (IAS 41 Agriculture) : Agenda Decision / IFRS Interpretations Committee. – London: IFRS Foundation, 2019. – URL: https://www.ifrs.org/content/dam/ifrs/supporting-implementation/agenda-decisions/2019/ias-41-subsequent-expenditure-on-biological-assets-september-2019.pdf.
9. Elad C. Fair value accounting in the agricultural sector: some implications for international accounting harmonization // European Accounting Review. – 2004. – Vol. 13, No. 4. – P. 621–641. – DOI: 10.1080/0963818042000216839.
10. Herbohn K., Herbohn J. International Accounting Standard (IAS) 41: what are the implications for reporting forest assets? // Small-scale Forestry. – 2006. – Vol. 5, No. 2. – P. 175–189. – DOI: 10.1007/s11842-006-0009-1.
11. Bohušová H., Svoboda P., Nerudová D. Biological assets reporting: is the increase in value caused by the biological transformation revenue? // Agricultural Economics – Czech. – 2012. – Vol. 58, No. 11. – P. 520–532. – DOI: 10.17221/187/2011-AGRICECON.
12. Huffman A. Asset use and the relevance of fair value measurement: evidence from IAS 41 // Review of Accounting Studies. – 2018. – Vol. 23, No. 4. – P. 1274–1314. – DOI: 10.1007/s11142-018-9456-0.
13. Gonçalves R., Lopes P., Craig R. Value relevance of biological assets under IFRS // Journal of International Accounting, Auditing and Taxation. – 2017. – Vol. 29. – P. 118–126. – DOI: 10.1016/j.intaccaudtax.2017.10.001.
14. Хусаинова А.С. Бухгалтерский учет биологических активов и сельскохозяйственной продукции в соответствии с международными стандартами // Вестник Алтайского государственного аграрного университета. – 2013. – № 3 (101). – С. 110–116.
15. Берёза А.О. Оценка биологических активов по справедливой стоимости // Мир новой экономики. – 2019. – Т. 13, № 3. – С. 59–70. – DOI: 10.26794/2220-6469-2019-13-3-59-70.
16. Alikulov A.I., Baxriyev M.Sh., Fayzullaev M.N. Qishloq xo‘jalik korxonalarida asosiy vositalar hisobining xususiyatlari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – Maxsus son, № 5. – B. 55–58. – DOI: 10.5281/zenodo.15743212.
17. Fayzullayev M.N., Alikulov A.I. Xalqaro standartlar asosida asosiy vositalarning tashkiliy-uslubiy asoslarini takomillashtirish masalalari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – Maxsus son, № 5. – B. 147–150. – DOI: 10.5281/zenodo.15747045.

18. Yakubov U.K., Abdullayev A.B. Qishloq xo‘jaligi subyektlarida iqtisodiy tahlilni takomillashtirish masalalari // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali. – 2025. – Vol. 5, No. 03. – B. 360–366.
19. Eshmuradov U.T. Agroklasterlar boshqaruv va moliyaviy hisobida mahsulot (ish, xizmat)lar sotish jarayoni hisobini takomillashtirish // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali. – 2026. – Vol. 6, No. 01. – B. 89–96.
20. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi. Qishloq xo‘jaligi ko‘rsatkichlari:rasmiy statistik ma’lumotlar bazasi va press-relizlar // URL: https://siat.stat.uz.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2026. VI maxsus son

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz










SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
"INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI" MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
2026-yil 25-26-sentabr



